

IJTIMOYIY ETIKETNING ASOSIY TAMOYILLARI

Yusupova Aziza

Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti, Gid hamrohligi, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik kafedrasida o'qituvchisi

Adaxamova Gulshoda

Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti, Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy etiket tushunchasi va uning jamiyat hayotidagi o'рни tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ijtimoiy etiketning fundamental tamoyillarini aniqlash va ularning shaxsiy hamda kasbiy muloqotdagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, tahliliy va kuzatuv usullaridan foydalanildi. Natijada ijtimoiy etiket shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi, jamiyatda o'zaro hurmat, ishonch va madaniy muloqotni ta'minlovchi muhim omil ekanligi asoslab berildi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy etiket, muloqot madaniyati, odob-axloq, ijtimoiy norma, kasbiy etika, xulq-atvor.*

Ijtimoiy odob-axloq - bu ma'lum bir xalqning uzoq tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan xulq-atvor normalari va qoidalari to'plamidir. Bu normalarga tarixiy davr, madaniyat, an'analar va jamiyatning o'ziga xos fikrlash usullari ta'sir qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy odob-axloq millatning tarixiy va madaniy tajribasini aks ettiradi va uning ijtimoiy mavjudligining ajralmas qismi hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida ijtimoiy odob-axloq yangi xususiyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy dunyo xalqlar va madaniyatlarning faol o'zaro ta'siri bilan ajralib turadi, bu esa o'zaro moslashishni talab qiladi. Natijada, turli madaniyat vakillari o'z an'analari va hayot qoidalarini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlarning ijtimoiy odob-axloq normalarini ko'rib chiqishni va hurmat qilishni boshlaydilar. Shu asosda o'zaro hurmat, bag'rikenglik va madaniy uyg'unlik tamoyillariga asoslangan global ijtimoiy odob-axloq shakllanadi.

Shunday qilib, tarixiy rivojlanish va madaniy qadriyatlardagi farqlarga qaramay, xalqlar o'zlarining ijtimoiy odob-axloq normalariga rioya qilgan holda, bir vaqtning o'zida bir-birining madaniy xususiyatlarini hurmat qilgan holda muloqot qilishda, o'zaro ta'sir qilishda va rivojlanishda davom etadilar. Bu zamonaviy jamiyatda barqaror madaniyatlararo muloqot va uyg'un birga yashashni ta'minlaydi.

Insoniyat olamida konstitutsiyaviy qonunlardan tashqari, yillar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan, o'zaro hurmat va hushmuomalalikni shakllantiruvchi yozilmagan qoidalar jamlanmasi - ijtimoiy etiket qoidalari mavjud. Ushbu qoidalar

nafaqat jamiyatda balki davlatlararo muloqotda rasmiy kelishuv va bayonnomalar tuzish, tinchlik va osoyishtalikni saqlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Ijtimoiy etiket jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u shaxslararo va guruhlararo munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Ijtimoiy etiket qoidalari tarixan shakllangan bo'lib, milliy madaniyat, urf-odatlar va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu qoidalar shaxsning jamiyatdagi mavqeini belgilashda va muloqot samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy etiketning 10ta asosiy tamoyillari bo'lib, ularning har biri bilan yaxshi tanish bo'lish va amalda aktiv bajarish bu har bir insonning o'zi va boshqa jamiyat vakillari oldidagi muhim vazifalaridandir. Ushbu tamoyillar inson ongiga bolalikdan o'tona, jamiyat, ta'lim muassasalari, mahalla institutlari tomonidan ham nazariy, ham amaliy singdirilishi lozim.

1. O'z-o'zini boshqarish. Jamiyatning qaysi jabhasida bo'lishingizdan qat'iy nazar o'z haddingizni va hurmatingizni bilish bu ijtimoiy etiketning eng birinchi tamoyili hisoblanadi. Baland va qo'pol ovozda gapirmaslik, fikringiz yoki savolingizni kerakli paytda bayon qilish, atrofdagilarga to'g'ri murojaat qilish va boshqalarning murojaatiga muloyim javob qaytarish, noo'rin so'zlardan foydalanmaslik sizning qay darajada o'zingizni boshqarishingizni yaqqol ko'rsatib beradi. Oddiy salomlashishdan boshlab rasmiy uchrashuvlargacha bu tamoyil sizga nisbatan hurmat va ehtirom chegarasini belgilab beradi.

2. Rahmat aytish. Sizga nisbatan ko'rsatilgan hurmat va e'tiborga nisbatan doimo o'z minnatdorchilingizni rahmat aytish orqali bildirasiz. Sizga yordam taklif qilinganda va bajarilgandan so'ng ham rahmat aytish, siz ulardan mamnun ekanligizni va berilgan yordamga munosib bo'lganligingizni ko'rsatadi. Bu holat ularda sizga nisbatan yaxshi taassurot uyg'otadi va kelasi uchrashuvlarda yaxshi muloqot va natijalarga erishishingizga yordam beradi.

3. Maqtov bildirish. Iltifotli so'zlar aytishda saxiylik qiling, birovlarining harakatiga o'z fikrigizni bildiring, ularni maqtang. Bu ham kelgusi uchrashuvlarda sizga nisbatan iliq munosabatni saqlashda yordam beradi. Ayniqsa yosh bolalarning qilgan kichik mehnatlarini qadrlash ularda ham, sizda ham samimiylik uyg'otadi. Ularda o'ziga nisbatan ishonch, oldinga harakat qilishga motivatsiya va qilgan ishiga mehr uyg'otadi.

4. Tinglovchi bo'lish. Jamoada faqatgina so'zlovchi bo'lib qolmay, boshqalar gapirayotganda ularni diqqat bilan eshitish va reaksiya bildirish. Bu muloqot davomida noqulaylik paydo bo'lishini oldini oladi va siz ularning fikrlariga befarq emasligingizni namoyon qiladi. Birov gapirayotganda tinglamaslik va noo'rin gap boshlash esa munosabatlar uzoq muddat davom etmasligiga xizmat qiladi.

5. Ehtiyotkorlik bilan gapirish. Har xil uchrashuvlarda o'rinli so'z va iboralardan foydalanishni bilishingiz juda ham muhim. Nafaqat o'zingizni, atrofdagilarni ham noqulay vaziyatga solib qo'ymaslik uchun avval o'ylab so'ng fikringizni bildirish, tana tilidan keraksiz foydalanmaslik, rasmiy uchrashuvlarda so'zlashuv uslubiga oid so'zlarni ishlatmaslik, to'liq ma'lumotga ega bo'lmay turib diniy va siyosiy mavzularda ortiqcha

gapirmaslik, davrada yo'q odamni muhokama qilmaslik sizning qay darajada oqil ekanligiz belgisidir. Va albatta, har bir gapingizni muloyimlik bilan tinglovchilarga yetkizib berish ham gaplaringiz qadrini yanada yuqori qiladi.

6. O'z vaqtida yetib borish. Belgilangan vaqtdan kech qolmaslik, agar imkoniyatingiz bo'lsa 10-15 daqiqa ertaroq borish sizning hurmatingizni oshiradi. Kech qolish odatda suhbat yoki majlisga halaqit beradi, sizga nisbatan negativ fikr paydo bo'lishigacha olib keladi.

7. Tanishtiruv paytida o'rnidan turish. Noma'lum shaxslar oldida gapirishdan oldin o'zingizni tanishtirishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi va bu jarayonda o'rningizdan turib gapiring, norasmiy holatlarda qo'l berib ko'rishing, agar siz stol atrofida bo'lsangiz ham boshqalarning e'tiborini qaratib gapiring, bu muloqot davomida tenglikni ta'minlaydi.

8. Ko'z bilan aloqa o'rnatish. Atrofdagilarda sizga nisbatan ishonch uyg'otish maqsadida gapirayotgan paytingiz sheriklaringiz ko'ziga qarab-qarab gapirish lozim. Yoki kimdir sizga gapirayotgan paytda uning ko'ziga qarash uning fikrlariga tushunayotganingizni belgisidir. Ammo keragidan ko'p ko'zga tikilib turish yoki tikka qarab turish noqulaylik uyg'otishi ham mumkin, muvozanatni bilish muhim.

9. Joy berish. Jamoat transportidan foydalanayotganingizda, kutish zallarida yoshi sizdan ulug'roq, sog'ligida muammosi bor yoki homilador ayollarga joy yetmayotganligini ko'rsangiz o'z joyingizni taklif qiling. Sizda tik oyoqda turish imkoniyatidan kerakli holatlarda to'g'ri foydalaning va oliyjanob sifatiga ega bo'ling.

10. Sovg'a berish. Noodatiy uchrashuvlar, tadbirlarda kichikroq ammo qiziqarli sovg'a olib borish sizni qanchalik darajada e'tiborli va hurmatga sazovor ekanligingizni namoyon qiladi va muloqot jarayonida sizga nisbatan iliqlik uyg'otadi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar ijtimoiy etiketning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, ular shaxsning jamiyatdagi xulq-atvori, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuv darajasini belgilaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ijtimoiy odob-axloq qoidalariga rioya etish orqali shaxs jamiyatda muhim o'rin egallashi, atrofdagilar uchun namuna vazifasini bajarishi va o'z nufuzini mustahkamlashi shubhasizdir. Xususan, kasbiy faoliyat sohasida etiket normalariga amal qilish xodimning hamkasblari va rahbarlari oldida yuksak hurmat kasb etishini ta'minlaydi. Bunday xodim korxonada yoki muassasaning yuziga aylanib, uning umumiy obro'sini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy etiket qoidalari nafaqat insoniy munosabatlarni tartibga soluvchi yozilmagan qoidalar, balki shaxsiy takomillashuv, kasbiy yuksalish va madaniy rivojlanish uchun zarur bo'lgan asosdir. Ushbu tamoyillarga qat'iy rioya qilish jamiyatda tinchlik, o'zaro ishonch va barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa, ta'lim, gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati kabi sohalarda ijtimoiy etiket qoidalariga rioya qilish kasbiy muvaffaqiyatning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun muloyimlik, tinglash madaniyati, vaqtga rioya qilish va to'g'ri muloqot o'rnatish professional imidjni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy etiket jamiyatda barqarorlikni ta'minlovchi, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlovchi va madaniy muloqotni rivojlantiruvchi muhim ijtimoiy mexanizm hisoblanadi.

Ijtimoiy etiket tamoyillariga rioya qilish shaxsning nafaqat ijtimoiy nufuzini oshiradi, balki uning kasbiy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi. Ushbu qoidalar jamiyatda o'zaro ishonch, hurmat va tinchlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008.
2. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999.
3. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
4. Goffman E. The Presentation of Self in Everyday Life. – New York: Anchor Books, 1959.